

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Axborot-resurs markazining 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar
bo‘yicha**

Y I L L I K H I S O B O T I

Filial Axborot-resurs markazida kitob fondini yangilab borish, uni yangi chop etilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar bilan boyitib borish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil filial axborot resurs markaziga jami 199 nomda 1855 sonda, mutaxassislik fanlariga oid o‘quv-qo‘llanmalar, darsliklar olib kelindi. Jumladan, amaliy matematika, psixologiya, ingliz tili, biologiya, iqtisodiyot, informatika, siyosiy va kitob albomlar, amaliy qo‘llanmalar va adabiyotlar olib kelinib ARM fondiga joylashtirildi.

Hozirgi kunga kelib filial axborot-resurs markazi fondining umumiy soni 1286 nomdagi 10743 sonda bosma adabiyotlar mavjud bo‘lib, jumladan Darsliklar 263 nomda, 3508 sonda, O‘quv qo‘llanmalar 340 nomda, 4673 sonda, Badiiy adabiyotlar 318 nomda 835 sonda, Ilmiy adabiyotlar 149 nomda, 372 sonda, Siyosiy adabiyotlar 186 nomda, 1308 sonda, Boshqa adabiyotlar 30 nomda 47 sondani tashkil qilib kelmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatish holati.

Axborot-resurs markazidan foydalanuvchilar uchun tezkor va sifatli axborot kutubxona xizmati ko‘rsatib kelinmoqda. Filial raqamli ta‘lim texnologiyalari xodimlari tomonidan maxsus lib.jbnuu.uz sayti yaratilgan bo‘lib, bu saytga kitobxonlar uchun barcha yo‘nalishlarda o‘quv adabiyotlari, badiiy, ilmiy va siyosiy adabiyotlarning elektron shakllari yo‘nalish kesimida joylashtirilib kelinmoqda. Talabalarga tezkor va sifatli axborot-kutubxona xizmatini amalga oshirish uchun t.me/arm-jbnuu telegram kanali joriy etilgan bo‘lib, bu kanalda kitobxonlar o‘zlari uchun kerak bo‘lgan o‘quv va ilmiy adabiyotlarini topish imkoniyati yaratilgan.

Filial axborot-resurs markazi fondidagi o‘quv adabiyotlarini elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqilgan bo‘lib, reja asosida aniq ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunga qadar jami 11648 sonda elektron adabiyotlar fondi mavjud.

Axborot-resurs markazidan bir vaqtning o‘zida 70 nafar odam foydalanishi uchun mo‘ljallangan o‘quv zali mavjud. Axborot-resurs markazida professor-o‘qituvchilar va talabalar istalgan elektron axborot ta‘lim resurslaridan ham keng

miqdorda foydalanishlari uchun 12 dona wi-fi tizimiga ulangan kompyuterlar mavjud. Professor-o'qituvchi va talabalar o'zlariga kerakli bo'lgan elektron axborot ta'lim resurslarini chop etib olishlari uchun esa 1 dona (3/1) imageCLASS MF3010 Canon printeri bor bo'lib undan beminnat foydalanish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan bir qatorda kitoblarning elektron nusxasini yaratish maqsadida CRUCE 16 Plus zamonaviy kitob skaner qurilmasi harid qilindi.

Axborot-resurs markazida talabalar kirib chiqishini kuzatish maqsadida <https://lib.jbnuu.uz/reception/> avtomatlashtrilgan kutubxona tizimidan foydalanib kelmoqda. Axborot-resurs markaziga 4398 nafar talaba va 216 nafar professor-o'qituvchilar a'zo bo'lgan. Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun avtomatlashtrilgan kutubxona tizimi ishga tushirilganligi tufayli 90 % iga "Kitobxon Guvohnomasi" taqdim etildi. Talabalarga Axborot-resurs markazga kirish va kitoblarni olish uchun ID kartalardan foydalanish elektron tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu elektron platforma orqali nafaqat axborot-resurs markaziga kirib-chiqish, adabiyotlarni olish va topshirishlarini ham elektron platforma orqali bajariladi. Bu elektron platforma orqali axborot-resurs markazidan foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish, talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlarining axborot-resurs markazidan foydalanish holati, kunlik tashriflar tahlili ham bir vaqtning o'zida nazorat qilinishi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi vaqtga kelib kunlik tashriflar o'rtacha 200 tani tashkil etmoqda

Filial Axborot-resurs markazida kitobxonlar uchun axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan elektron xizmat ko'rsatish tizimi Reception dasturi orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi. Hozirgi kunda EpscoHost va Springer ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoni mavjud undan tashqari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali va Xalqaro TOP1000 talikka kirgan OTMLar o'rtasida shartnomalar imzolangan. Quyida ular shartnomalar imzolangan OTMLar haqida ma'lumotlar keltirilmoqda:

2022 yil 27 – iyunda M.O.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti bilan birgalikda ilmiy loyihalar, konferensiyalar o'tkazish, seminarlar, qo'shma monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar nashr etish, ilmiy ishlar va boshqa o'quv materiallari almashi bo'yicha.

2021-yil Qozon (Volga viloyati) Federal universiteti bilan o'quv rejalari, o'quv materiallari va ta'lim dasturining boshqa zaruriy tarkibiy qismlarini almashish bo'yicha.

2021-yil L.N. Tolstoy nomidagi TDPU bilan o'quv rejalari, o'quv materiallari va ta'lim dasturining boshqa zaruriy tarkibiy qismlari hamda birgalikda ilmiy maqolalarni chiqarish bo'yicha.

2022-yil Evrosiyo milliy universiteti bilan ta'lim sohasida qo'shma ilmiy tadbirlar, nashrlar, ilmiy tadqiqotlar, o'quv va uslubiy adabiyotlar va davriy nashrlar almashish to'g'risida.

2023-yil 27-aprelda Akademik E.A. Buketov nomidagi Qarag'anda universiteti bilan ta'lim sohasida qo'shma ilmiy tadbirlar, nashrlar, ilmiy tadqiqotlar, o'quv va uslubiy adabiyotlar va davriy nashrlar almashish to'g'risida.

2023-yil 3-mayda Perm davlat universiteti bilan o'quv rejalari, o'quv materiallari va ta'lim dasturining boshqa zaruriy tarkibiy qismlari hamda birgalikda ilmiy maqolalarni chiqarish bo'yicha shartnomalar imzolangan.

Axborot-resurs markazida markazning yig'ma elektron katalogi <http://unicat.natlib.uz/> tizimidan foydalangan holda yaratilmoqda, axborot-kutubxona fondini shakllantirish maqsadida <https://unilibrary.uz/> tizimiga elektron shaklga o'tkazilgan adabiyotlarni va yangi kelgan adabiyotlarning elektron shakllarini joylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Filialda axborot-resurs markaziga tashrif buyurgan har bir foydalanuvchining ehtiyojini qondirish hamda kutubxona faoliyatini rivojlantirish maqsadida Sh. Rashidov nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi, Jizzax viloyat ko'zi ojizlar kutubxonasi markazi hamda Jizzax davlat pedagogika institutining axborot-resurs markazlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlar amalga oshirilib, turli tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Jumladan,

Filial axborot-resurs markazida 2023-2024-o'quv yilida bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami 311 ta fan (1-kursda jami 47 ta fan, 2-kursda jami 76 ta fan, 3-kursda jami 113 ta fan va 4-kursda jami 75 ta fan) magistratura mutaxassisliklari bo'yicha jami 48 ta fan (1-kursda jami 36 ta fan, 2-kursda jami 12 ta fan), ya'ni filial bo'yicha 359 ta fan mavjud bo'lib, axborot-resurs markazida filial bo'yicha o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi hozirgi kunda 73 %ni tashkil qilmoqda. Fanlarning darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasi 67 %ni, shuningdek, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasi 78 %ni tashkil qiladi.

Filialda 10 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan 311 ta fandan 285 tasi, 8 ta magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan 32 ta fandan 28 tasi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan. Fanlarning umumiy o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanganligi elektron adabiyotlar bilan birga 91,6% ni tashkil etadi.

2023-yilning 30-yanvar kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Axborot resurs markazda Ilmiy-uslubiy axborot-malumot (davriy nashrlar) bo'limi 1 toifali kutubxonachisi G. Yakupova tomonidan davra suhbatini o'tkazildi. Davra suhbatida Jizzax viloyat ko'zi ojizlar kutubxonasi bilan birgalikda hamkorlik shartnomasi tuzilgani haqida aytili va olib kelingan 16 ta badiiy adabiyot talabalarga tanishtirib o'tildi. Talabalar ushbu

kitoblarni o'qib foydalanishlari mumkin. Har oyning 15- kunida bu badiiy kitoblar olib ketilib o'rniga boshqa badiiy kitoblar olib kelinadi. Shartnomada



kitobxonlarning o'zlari qiziqqan badiiy kitoblar bilan ta'minlanish maqsadi ko'zda tutilgan.

2023-yilning 9-fevral kuni Axborot resurs markazi hamda "Amaliy matematika" fakulteti tyutorlari bilan hamkorligida, Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi munosabati bilan g'azalxonlik kechasi bo'lib o'tdi.



2023-yilning 14-fevral kuni ARM xodimlari tomonidan mutafakkir, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan "Biz Boburning avlodlarimiz" nomli adabiy va badiiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida ARM xodimlari tomonidan g'azalxonlik, yozuvchilar uyushmasidan Allamurodova Nilufar, Jizzax viloyat Ko'zi ojizlar kutubxonasidan Ismatova Hayitgul opa, "Yulduzcha qizlari" tomonidan raqs tayyorlanib badiiy chiqishlar va kuy qo'shiqlar yig'ilganlarga o'zgacha kayfiyat bag'ishladi.



2023- yil 7-sentyabr kuni "Birinchi kurs maktabi" tadbirlari doirasida "Psixologiya" fakulteti tyutorlari va Axborot-resurs markazi xodimlari bilan birgalikda fakultetga yangi qabul qilingan talabalar Jizzax shahridagi Sharof Rashidov nomli Jizzax viloyat axborot kutubxona markaziga sayohat uyushtirildi.



2023-yil Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida 1-oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayrami tantanalari ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.



2023-yilning 23–27-oktabr kunlari O‘zbekiston Milliy kutubxonasida “INFOLIB O‘zbekiston–2023” XII Milliy axborot kutubxona haftaligi va “Yosh kutubxonachilar” III forumida ishtirok etildi.



2023-yilning 1-noyabr kuni Axborot-resurs markazida Talabalar turar joyida yashovchi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish hamda talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Kitobxon talaba" tanlovining 1-bosqichi o'tkazildi. 2022-yil 18-22-aprel kunlari respublikamiz miqyosida rejalashtirilgan "Kitobxonlik haftaligi"ni o'tkazishda hamkorlikda ishlar amalga oshirildi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filialida Axborot - resurs markazi tomonidan "Kitob ila dunyo ochilur" shiori ostida bayram tadbirlari o'tkazildi. Haftalikning ikkinchi kuni Jizzax viloyat Ko'zi ojizlar kutubxonasida, "Kitob-beminnat ustoz", shiori ostida, "Kitobxonlik haftaligi" doirasida hamkorlikda kitob taqdimoti o'tkazildi.




2023-yilning 2-noyabr kuni "Amaliy matematika" fakulteti tyutorlari tomonidan o'zlariga birlashtirilgan guruh talabalari tomonidan bir kitobga bir kitob aksiyasi doirasida yangi badiiy kitoblar va o'zlari o'qib tugatgan kitoblarini boshqa talabalar ham o'qib baxramand bo'lishlari uchun filial kutubxonasiga badiiy adabiyotlar taqdim etdilar.



Joriy yilning 9-noyabr sanasida Axborot resurs markazida Talabalar turar joyida yashovchi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish hamda talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Kitobxon talaba" tanlovining 2-bosqichi o'tkazildi.



2023-yil 30-noyabr kuni O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialining "Axborot-resurs markazi" tomonidan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ilgari surgan 5 muhim tashabbusning To'rtinchi tashabbusi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, samaradorligini oshirish va "Yoshlarni kitobga qiziqishini oshirish oliy ta'lim nighohida" mavzusida badiiy kecha tashkil etildi. Ushbu badiiy kechaga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasidan M.Abdurahmanova, Sh.Rashidov nomidagi Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi xodimi B.Po'latova va Jizzax viloyat Ko'zi ojizlar kutubxonasi xodimi N.Berdiyevalar ishtirok etishdi.



2023-yilning 7-dekabr sanasida Axborot-resurs markazi va "Amaliy matematika" fakulteti tyutori R.O'roqov bilan hamkorlikda filial kutubxonasida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, asosiy qonunimizda belgilangan demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

